

FERULA O'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI.

Teshaboyeva Maftuna Ikromjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti

Akmaljonova Madinabonu Ubaydullo qizi

FarDu, Zootexniya fakulteti talabasi

Anotatsiya: Maqolada soyabonguldoshlar oilasi vakili kovra(*Ferula*)ning tarqalgan hududlari, uning dorivor xususiyatlari, xalq tabobatida qo'llanishi, president varmonlari, sanoatda qo'llanishi va boshqa xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: kovrak, soyabonguldoshlar oilasi, ko'p yillik, buta, o't, smola, sirka, murch, gul, ildiz, barg.

Soyabonguldoshlar oilasi asosan o'tsimon o'simliklar, bazan yarim butalar kiradi. O'tsimon yurlari asosan shiyoliy yarimsharlarning o'rta mintaqqa zonasida, yarim buta va butalar esa tropik va subtropik zonalarda o'sadi. Soyabonguldoshlar oilasiga yer sharining deyarli hamma joyida o'sadigan 250 turkum va 3500 tur kiradi, bu o'simlik turkumlaridan 147tasi turlaridan 750tasi MDH territoriyasida o'sadi. Bu oila vakillarining ko'pi sabzavot va xushbo'y o'simlik bo'lishi sababli katta ahamiyatga ega. Bunday o'simliklar jumlasiga quyidagilar kiradi: sabzi-*Daucus sativus*, zira-*Carum carvi*, kovrak-*Ferula* va hokazo. Bu oila vakillarining ko'pchilik turlari dorivor hisoblanadi. Bunga misol qilib kovra(*ferula*) o'simligini olishimiz mumkin. Kovrak(*ferula*)-ziradoshlar (soyabonguldoshlar) *Apiaceae* (*Umbelliferae*) oilasiga mansub bo'lib ko'p yillik o't o'simlik. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyoda respublikalarida 104, mamlakatimizda 50 turi uchraydi. Kovrak asosan Toshkent, Surxandaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonning qumli cho'llari, adirlar, tog'lar va tog'oldi hududlarda o'sadi. Tabiatda asosan sasiq kovrak (*Ferula assafoetida* L.) –“anjudan” nomli o'simlikning shirasi bo'lib, Misrda uni “abu kabir” deb ataladi. Eng sifatli kovrak yelim-smolasi, kuchli hidi bor kovrakdir. Bu o'simlikning dorivor xususiyatlari ham juda ko'p bo'lib, tabobatda bemor organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi faol moddalar mavjud. Dorivor vosita sifatida o'simlikning ildizi, bargi, guli, urug'i, mevasi, foydalaniladi.

Buyuk o'simlikshunos Abu Ali Ibn Sino ushbu o'simlikka shunday ta'rif bergan: Kovrak urug'ini qaynatmasi (urug'i xuddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3mahal 50grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anchir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga

surtilsa, foyda qiladi. Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o'pka sili, o'lat, ko'k yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy meditsinada kovrak yelim smola – "asafetida" nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi sifatida foydalaniladi va ko'pchilik davlatlarda farmokopeyasiga kiritilgan. Kovrak ko'rish qobilyatini yaxshilaydi, katarakta, ko'z kasalliklari vashishlarini davolaydi. Agar tez-tez yoshlanadigan ko'zlarga uni asal bilan aralashtirilib surma kabi sursa, u ko'z yoshlarining tez-tez kelishi oldini oladi. Agar uni yemirilgan tishga qo'ysa, u og'riqni sekinlashtiradi. U quloq og'riqlarini (quloqning shang'illashi) va surinkali qulog'i og'riqlikni davolaydi. Bu uchun uni moyda qaynatib quloqqa tomizish lozim. Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindistonda ildizi oziq ovqat sanoatida ziravorsifatida kasmetika sanoatida attorlik vositasitalari ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 20-martdagi "Respublikada kovrak plantasiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish hamda eksport qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3617 qarori asosida kovrak plantasiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash uyushmasi tashkil etilgan. Xususan, bugungi kunda respublikada jami 12ming gektardan ortiq maydonda kovrak o'simligi yetishtirilmoqda. Ushbu maydonlarda 2021-yilda qiymati 7,65 mln dollarlik 170 tonna kovrak shirasi amalga oshirilgan. Prezident farmoniga ko'ra, kovrak yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlariga bir qator imtiyozlar nazarda tutilgan. Xususan, 1-maydan boshlab 3 yil davomida kovrak yetishtirishda olgan daromadlari joriy hisobot(soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromatning 80%ni tashkil etadigan tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan foyda, mol-mulk va solig'i, shuningdek, suv resuslaridan foydalanilganlik uchun soliq stavkalari 50%miqdorida qo'llaniladi. Prezidentimiz hozirda barcha tadbirkorlarga imtiyozlar imtoyozlar yaratish bilan birga O'zbekiston fuqarolarini tabiiy dori fositalari bilan davolash yo'llarini amalga oshirmoqda.

Xulosa: Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12ming turi bor. 1000dan ortiq o'simlik turlarining kimyoviy, farmokologik va dorivorlik xossalari tekshirilgan. O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 577 turi mavjud. Shulardan hozirgi vaqtda 250 turi ilmiy tabobatda ishlatilmoqda. Dorivor o'simliklarning organizmga ta'siri ularning tarkibidagi birikmalarning miqdoriga bog'liq. Bu birikmalar o'simliklarning har xil qismlaridaturli miqdorda to'planadi. Bundan ko'rinib turibdiki yer yuzida tarqalgan ko'pchilik o'simliklar dorivordir. Ko'p

o'simliklardan mikroorganizm va viruslarni yo'qotadigan antibiotiklar va fitonsidlarga boy preparatlar tayyorlanadi. Demak hulosi qilib aytganda har bir o'simlikni qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, xalq tabobatida o'rni benihoyat kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov
Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi Toshkent 2020
- 2.X.X.Xolmatov, A.I.Qosimov Ruscha-Lotinch-O'zbekcha dorivor
o'simliklar lug'ati, Toshkent-1992.
- 3.Q.X.Xaydarov, Q.X.Xojimatov O'zbekiston o'simliklari, Toshkent-1992.
- 4.O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yo'ldochiyeva, D.Mustafakulov
Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi